

UDK: 916; 796.5

## SURXONDARYO VILOYATIDAGI SPORT VA EKOTURISTIK MASKANLAR

**Hamrayeva Dilbar Hamza qizi**  
**Termiz davlat pedagogika instituti talabasi.**  
**@hamrayevadilbar0707@gmail.com**

**Annostatsiya:** Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatidagi sport turizmi va ekoturistik maskanlar haqida ma'lumotlar berilgan. Viloyatda sport turizmi va ekoturizmning rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilingan. Muallif tomonidan mazkur maqolada viloyatdagi sport turizmi va ekoturizm maskanlarini rivojlantirish bo'yicha bir qancha takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, sport turizmi, ekoturizm, Sangardak sharsharasi, ekoturistik rayonlashtirish, Teshik-tosh g'ori, ekoturistik maskanlar.

**Kirish:** Odamlar dunyoning boshqa mamlakatlarga aniq maqsadlar bilan sayohat qilishi qadim zamonlardan ma'lum bo'lib, bu orqali millatlar va davlatlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi ko'prik vazifasini bajaradi. Insoniyat tarixi davomida sayohatlar, yangi hududlarni o'rganish, kashfiyotlar, madaniy aloqalar, xalqlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Turizm insonlarni o'zaro birlashtiribgina qolmay, turli millat vakillarining hayot tarzi, urf odatlari, madaniyati, san'ati bilan tanishtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgach turizm sohasida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Mamlakatimizda turizmning bir qancha yo'nalishlarini rivojlantirish salohiyati mavjud bo'lib, sohalarni modernizatsiyalash orqali turistlar salmog'ini oshirish mumkin.

Bizga ma'lumki, sport turizmi turizm sohasining asosiy yo'nalishlaridan biri. Prezidentimizning 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-sonli “Sog'lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni<sup>1</sup> e'lon qilingan bo'lib, ushbu farmon ijrosi shuni ko'rsatdiki aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son Farmoni.



Sport va turizmning birlashuvi yangi yo‘nalish tarzida sport turizmiga birlashadi. **Sport turizmi**-sport o‘yinlariga va sport musobaqalari o‘tkaziladigan mintaqaga yoki mamlakatlarga sportchilar bilan birgalikda tashrifi demakdir. Sport turizmi tarixan Sobiq Ittifoq davlatlarida yaxshi rivojlangan bo‘lib, hozirgi paytda turizmning bu tarmog‘i katta daromad manbai sifatida tez o‘sib bormoqda. Sport turizmi-sport turlari bilan bog‘liq holda rivojlangan. Sport turizmining turlariga quyidagilar kiradi:

- piyoda yurish;
- chang‘i turizmi;
- tog‘ turizmi;
- suv turizmi;
- transport vositalari turizmi;
- speloturizm;
- yelkanli turizm;
- mototsikl turizmi va boshqa turlarga bo‘linishi mumkin.

O‘zbekistonning qulay iqlim sharoitlari va o‘ziga xos landshaftini hisobga olsak sport va ekoturizmning rivojlanishi uchun barcha sharoitlar mavjud. Surxondaryo viloyatining ko‘plab tog‘ tizmalari daraxtzorlar va tog‘ daryolariga boy. Tog‘larning toza havosi quyoshli kunlarning ko‘pligi turistlarning tashrif buyuruvchi obyektlarga aylantirish imkoni mavjud. Tog‘ning baland qalin qorli qismlarida alpinizm, daryo turizmi kabi turli sport turizmini amalga oshirish imkonini beradi. Toshkent viloyatida joylashgan Chimyon sport dam olish majmuasini Surxondaryo viloyatining tog‘li mintaqalarida ham tashkil etish mumkin. Surxon daryosi va Oqtepa suv havzasida suv sport turlari uchun mos joy. Bu joylarda qayiqlarda suzish, baliq ovlash va dam olish zonalarini tashkil etsa bo‘ladi. Viloyatning tog‘li hududlari-Boysun va Hisor tizmalari sport turizmining turlari yo‘nalishlarini tashkil etish, sayyohlar va sport ixlosmandlari uchun katta qiziqish uyg‘otadi.

Bulardan tashqari Surxondaryo viloyatida sportning milliy kurash, piyoda yurish, veloturizm, ot sporti turizmlarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida qonun va qarorlar ishlab chiqilmoqda. Surxondaryo viloyati tog‘ turizmi va ekoturizmni rivojlantirish uchun yetarli salohiyat mavjud. Viloyatda tabiiy landshaftining betakrorligini ko‘rsatadigan g‘orlar, massivlar, sharsharalar va daralarni ko‘rish mumkin. Bu joylar turistlar va sarguzasht izlovchilarning katta

e'tiborini tortadi. Vohamizning noyob va shifobaxsh o'simliklarning ko'pligi ularning inson salomatligiga ta'siri ko'plab sayyohlar va chet ellik turistlar orasida qiziqish uyg'otadi.

O'zbekiston hududini ekoturistik rayonlashtirilganda Surxondaryo viloyatining Hisor rayonidagi “Hisor davlat qo'riqxonasi” va Ko'hitang tog'li hududida “Surxon davlat qo'riqxonasi” kabi ekoturistik maskanlar mavjud. Surxon davlat qo'riqxonasi O'zbekistonning eng qadimiy qo'riqxonalaridan biri bo'lib, bu yerda kamayib borayotgan hayvonlar va o'simlik turlari himoyalanaadi [4; 181-bet].

**Ekoturizm**-nafaqat ma'muriy-manaviy maqsadlarni ko'zlagan holda betakror tabiiy hududlarga, ularning hayvonot va o'simlik dunyosiga sayohat, balki ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni amalga oshirilishi yordamida ekologik muammolarni hal qilish bilan bir-biriga bog'liq majmualar yig'indisini tushunamiz [3; 35-bet]. Surxondaryo viloyatida ekoturizmni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar, imkoniyatlar katta. Ekoturni yilning barcha fasllarida o'tkazish va uni tarixiy, diniy turizm bilan qo'shib olib borish mumkin. Ekoturistlar uchun qiziqarli bo'lgan obyektlar, alohida muhofazaga olingan hududlar tabiat ta'siri natijasida yuzaga kelgan g'aroyib landshaft zonalari ham uchraydigan va kamayib borayotgan o'simlik va hayvonot olami, tarixiy yodgorliklar ekoturizmni rivojlantirishning muhim asosi hisoblanadi. Viloyatda ekoturizmni rivojlantirishda ko'plab samarali ishlar olib borilmoqda. Ekoturizm uchun asos bo'ladigan noyob tabiiy resurslar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari haqida ma'lumot berib o'taman.

**Boysun tog'lari.** Bu hudud tabiatining qizil kitobga kiritilgan ko'plab o'simlik va hayvon turlari bilan mashhur. Boysunning marmar qoyalari bag'rida Teshik-tosh deb nomlangan katta teshigi bor ulkan tosh mavjud. Bu joyda 9 yoshli Neandertal bola va qadimgi hayvonlarning qoldiqlari topilgani bilan ham mashhur. Bugungi kunda Teshik-tosh O'zbekistonning noyob arxeologik qo'riqxonalaridan biridir. An'anaviy tarzda o'tkaziladigan xalqaro ochiq folklor festivali ham aynan shu hududda o'tkaziladi. Bundan tashqari tog' yurishlari va chodir tikib dam olish uchun ham ajoyib joydir.

Surxondaryo mo'jizasi bo'lmish Sangardak sharsharasi qadimdan odamlarni o'ziga rom qilib kelayotgan so'lim maskanlardan biri hisoblanadi. Sangardak sharsharasi O'zbekistonning Tojikiston bilan chegaradosh Sariosiyo tumanida joylashgan. Bu tabiatning bebaho in'omidir. Uning tiniq suvlari tog'lardagi daralar orasidan jaranglab tushadi. Yozning issiq kunlarida bu yerda salqinlik hukm suradi.



Bu yerda nafaqat mahalliy aholi balki turli viloyatlardan kelgan sayyohlar uchun ham chinakam dam olish maskaniga aylangan. Bugun bu yerda yo‘lakchalar, dam olish joylari, sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Atrofdagi qoyalarga urilib 60-70 metr, bahor oylarida 100 metrgacha bo‘lgan balandlikdan oqadigan tabiatning fusunkor mo‘jizasi ko‘zni quvontiradi.

Surxondaryo viloyati tabiiy va madaniy boyliklari bilan sport turizmi uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Tog‘lar, g‘orlar va daryolar bu hududni nafaqat jismoniy faollik uchun, balki sarguzasht izlovchilar uchun ham jozibador qiladi. Agar to‘g‘ri boshqaruv va infratuzilma yaratilsa, Surxondaryo viloyati nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo sport turizmi markazlaridan biriga aylanishi mumkin. Ekoturistlar bu joyda tabiatni tomosha qilish va ekologik ta’lim olish imkoniga ega.

Surxondaryo viloyatida ekoturizmni rivojlantirish orqali quyidagilar o‘zgarishi kuzatiladi:

1. Tabiatni muhofaza qilish. Noyob tabiiy boyliklar himoya qilinadi va kelajak avlodga yetkaziladi;
2. Mahalliy iqtisodiy rivoji. Mahalliy aholining daromadi oshadi va ularning turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi;
3. Xalqaro e’tiborni jalb qilish. Ekoturizm Surxondaryoni xalqaro xaritasida taniqli joyga aylantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son Farmoni.
2. Usmonov M.R. “Turizm geografiyasi”. Samarqand, “SamDU” nashriyoti – 2020. 281 bet.
3. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.SH., Tursunova G.R. “Turizm asoslari”. Toshkent, “Fan va texnologiya” -2014. 332 bet.
4. Mirzayev M. A., Aliyev M.T. “Turizm asoslari”. Toshkent, “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti -2011. 288 bet.
5. Hamrayev H.R. “Turizmologiya”. Buxoro, “Kamolot” nashriyoti-2023. 236 bet.
6. Abdimo‘minov T.A., & Xoliyorov H.O. (2024). Vaxshivor hududida turizmni rivojlantirish masalalari. Экономика и социум, (5-2 (120)), 12-14.



7. Abdimo‘minov T.A., Toshpo‘latov Sh.M., & Cho‘liboyev I.I. (2022). Tarixiy va madaniy obyektlarning turistik imkoniyatlari (jarqo‘rg‘on minorasi misolida). Экономика и социум, (12-1 (103)), 14-18.

8. Abdimo‘minov T.A., & Xoliqov X.I. (2024). O‘zbekistonda ziyorat turizimini rivojlantirishning iqtisodiy geografik xususiyatlari. Экономика и социум, (5-2 (120)), 6-11.

9. Hamrayeva D.X. Turizmni o‘rganishning ilmiy va nazariy jihatlar. Экономика и социум, №3(106)-1 2023



Research Science and  
Innovation House

